Volume 2, Issue 2,2024

UNIVERSITET TALABALARIGA SIFATLI TA'LIM BERISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Isaqulova Baxtigul Xo‘jamovna
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta`lim dargohlarida ta`lim sifatini oshirish masalalari, pedagog kardlar malakasini oshirish tendensiyalari hamda auditoriya ta`limini shakllantirish yo`nalishlari ko`rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ta`lim sifati, o`qituvchi, metod, malaka oshirish, texnologiya.

KIRISH

Tajriba ko‘rsatadiki, texnologiyalar ta’lim oluvchilarning intellektual ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda ta’lim hamma bo‘g‘inlarida pedagogik jarayonlarning chuqur mohiyatini tashkil etuvchi rivojlanish uning asosiy tushunchasiga aylanuvchi harakatlanuvchi kuch yangi pedagogik texnologiyalardir. Ko‘p mamlakatlarda va shu jumladan, bizning respublikamizda o‘tkazilgan tadqiqotlar ta’lim tizimining hamma bo‘g‘inida eng katta kamchilik tahsil oluvchilarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatga qo‘llay olmaslik ekanligini, murakkab hayotiy va iqtisodiy vaziyatlardan mustaqil chiqib keta olmaslik ekanligini ko‘rsatdi. Ta’lim islohotimizda jahon ta’limini rivojlantirishning ijobiy xususiyatlarini ta’limni amaliy inson hayoti – shaxsga yo‘nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida uni rivojlanishini asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta’lim tizimimiz rivojini jahonga yo‘naltirish yana bir muhim vazifa - ta’lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirish tajribasidan unumli foydalanishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bu esa ta’limning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, ta’lim jarayonida ob’ektlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni insoniy munosabatlarni mohiyatini tushuntirish kishilar bilan muloqotga kirisha olish, fikrini to‘g‘ri bayon qilish uchun uni boshqalarga ma’qullash, organizm xususiyati qobiliyatiga mos kasb tanlashga o‘rgatish belgilovchi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida bu talablarni amalga oshirishda turli vosita va usullar asosida tayyor bilimlar o‘rganish miqdorini kamaytirib, ta’lim oluvchilar intellektual, ijodiy va mustaqil fikrlash faoliyatini kuchaytirish, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llash, nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash holatiga qo‘yuvchi vaziyatlar yaratish zarur bo‘ladi. Ta’limning amaliy tomoni ham shaxs uchun, ham davlat uchun foyda hisoblanadi. Chunki har bir mamlakat ta’lim tizimi uning eng muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni yechishga xizmat qilishi kerak. Ta’lim inson uchun o‘z shaxsiy hayotini qurish kasb tanlash va kasb sohibi sifatida o‘zini namoyon qilish jamiyatga munosib o‘rnini topishga xizmat qiladi. Demak, ta’lim muassasasi insonni ijtimoiy–iqtisodiy, madaniy–siyosiy, kasbiy faoliyatiga tayyorlovchi joydir. Shu asosda ta’limni asosini isloh qilish jamiyatni rivojlantirishni tezlashtirishning muhim omili hamdir. Shuning uchun ta’lim jamiyat va shaxs ehtiyojlariga sezgirlik bilan javob berishi lozim. Jahon rivojlanishining umumiy xususiyatidan kelib chiqib, hozirgi davr uchun mustaqil fikrlovchi o‘z aqliy va ijodiy qobiliyatini amaliyotga qo‘llay oladigan o‘ziga to‘g‘ri baho beradigan shaxsni shakllantirish ta’limning asosiy maqsadini belgilaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim islohoti mamlakatimiz uchun ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik zaruratga aylandi. Uni jahon ta’limining ilg‘or an’analari asosida amalga oshirish har jihatdan foydali hisoblanadi. Islohot uzluksiz ta’lim tizimining hamma bo‘g‘inlarini mafkuraviy, tashkiliy-pedagogik, mazmun va maqsad, shakl va metodlarini qamrab olgan keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy-siyosiy hamda pedagogik muammodir.

Jumladan, biz uning pedagoglar malaka oshirish tizim oldida qo‘yayotgan talablar asosida qarab

chikamiz.

Jahon andozalariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ko‘p jihatdan kasb- hunar ta’limining barqaror rivojlanishiga hamda uni ta’minlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog‘liqdir. O‘z navbatida bu o‘quv jarayonini jahon standartlariga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda yangicha, jahon andozalariga hamohang ta’lim mazmunini joriy qilish o‘z-o‘zidan emas, balki ko‘p mingli pedagoglar ongi tajribasi, ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi. Ta’lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddati axborot olamida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishiga foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Bu ishning qanchalik muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta’lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta’lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv-tarbiya jarayonlariga joriy qilish o‘qituvchilarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Modomiki shunday ekan, malaka oshirish jarayonida nimalarga asosiy e’tiborni qaratish yoki uning maqsadi nimalarda o‘z ifodasini topadi? Eng muhimi [2]:

- har bir pedagogning shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratini o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng so‘nggi yangiliklar bilan tanishtirib borish;
- kasbiy-pedagogik faoliyatining yuqori darajada bo‘lishi uchun yangiliklarni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- pedagoglarga yangiliklarga tashnalik va doimo mustaqil o‘qish hissini tarbiyalash;
- o‘quv jarayoniva malaka oshirishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish.

Pedagogik kadrlar malaka oshirish jarayonini takomillashtirish mazkur coha xodimlarining o‘zlarini kasbiy mahoratini oshirish, ularning kattalar ta’limi xususiyatlarini, qonuniyatlarini tushunish borasidagi tayyorgarliklarini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Malaka oshirish natijalarini doimiy tahlil qilish asosida jarayonga o‘zgarishlar kiritish zarur.

Professor J.G.Yo‘ldoshev pedagog kadrlar malaka oshirish jarayonlarini isloh qilish uchun quyidagilarga e’tibor qaratadi [3]:

1. Malaka oshirishni pedagoglarning faol ishtiroki, yangi pedagogik texnologiya va innovatsion tajribalar asosida tashkil etish.
2. Malaka oshirish jahon tajribalari asosida tashkil etishni iqtisodiy mehnatimizni yaratish.
3. Malaka oshirish muassasalarida yuqori malakali olimlar metodistlar, mualliflar, ijodkor o‘qituvchilar ishlashiga erishish.
4. Malaka oshirish muassasalarini ixtisoslashtirish.
5. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik diagnostikasini o‘tkazish va malaka oshirishning yangi shakllaridan foydalanish.
6. Har qanday sharoitda o‘qituvchining o‘z malakasini o‘zi mustaqil oshirishiga asosiy shakl sifatida qarash.

Pedagog kadrlar malaka oshirishi va qayta tayyorlashi bilan uzluksiz ta’lim o‘rtasida bog‘lanishi aniqlashda shunga asosiy e’tiborni qaratish lozimki, bu yerda belgilovchi shaxsning hayoti faoliyatining hamma bosqichlarida uning rivojlanishi bilan chambarchas amalga oshadi. Uzluksiz ta’lim o‘zining maqsadli funksiyasi jihatidan shaxsning barqarorligini ta’minlovchi jarayon va sharoit sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, o‘qituvchi mehnatining eng muhim xususiyati yoshlar har tomonlama kamol topishini ta’minlashdir. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy faoliyat sohibi – o‘qituvchining o‘zini har tomonlama bapkamol bo‘lishini taqozo qiladi. Barkamol shaxsgina komil insonni shakllantira oladi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohoti dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ta’lim rivoji darajasiga erishish uchun olijanob sa’y

harakatlardir. Bu bizning rivojlangan davlatlar tarixiy tajribasidan o‘rinli foydalanish va o‘z ichki imkoniyatlarimiz tarixiy ildizlariga tayanib ta’lim tizimimizni yakin vaqtda ilg‘or mamlakatlar darajasiga ko‘tarish ulardan mukammalroq milliy ta’lim-tarbiya tizimi shakllanishiga ijtimoiy-iqtisodiy asos yaratishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Xalq so‘zi. 2017 yil 16 yanvar.
2. Zaripov K.Z. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. / J. Xalq ta’limi. 2017, 4-son 4-12 betlar.
3. Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari. // J. Xalq ta’limi. 2019 yil. 4-son.
4. Malaka oshirish muammolari, izlanishlar, yechimlar. – T., 2013.
5. Nuriddinov B.S. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. – T., 2011.

